

SIL KASALLIGIDA DISPANSER NAZORATI

Saitmurotov M.A., Boltayev J.J., Ibragimov N.X.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası

Ushbu dolzarb muammo har bir davlatning sog‘liqni saqlash sohasidagi jiddiy, tibbiyot islohotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo olimlari xavotiriga sabab bo‘layotgan sil kasalligining tarqalishi o‘z-o‘zidan ijtimoiy ahamiyat kasb etib, barcha davlat va hamkor tashkilotlarning diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Global muammo tusini olgan mazkur kasallik mamlakatimiz tibbiyot mutaxassislarining ham yangicha yondashuv va davolash profilaktika tizimi asosida ish tutishlarini taqozo etmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida sil kasalligi har yili o‘rtacha 5 foizga qisqarsada, OITS kasalligidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, yiliga 8,6 mln. kishi ushbu xastalikka chalinib, 1,43 mln. bemor silning har xil asoratlaridan vafot etadi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining xabar berishicha, yer yuzida taxminan 2,1 milliard odam sil bilan zararlangan. Shularning 10 foizida, hayoti davomida sil kasalligi yuzaga kelishi mumkin, bunda OITS katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston respublikasida silga qarshi bir qator tadbirlarning olib borilishiga va xalqaro dasturlarga qaramasdan, sil bo‘yicha epidemiologik vaziyat og‘irligicha qolmoqda.

Respublikamizda sil kasalligining tarqalishiga noqulay ekologik vaziyat, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, aholi o‘rtasidagi migratsiya, shu jumladan, OIV-infeksiyasi va OITS bemorlar sonining ko‘payishi sabab bo‘lmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda jadal va keng ko‘lamda profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning hamda DOTS strategiyasining tadbir qilinishi natijasida kasallanish, o‘lim ko‘rsatkichlarining bir qadar barqarorlashishiga va kamayishiga erishildi.

O‘zbekistonda har yili, qariyb 18-20 ming nafar kishi silning faol turlari bilan og‘riydi va 2 mingdan ko‘proq bemorlar vafot etadi.

Shunday qilib, sil kasalligi epidemik jarayoning faollashishi qator tibbiy - ijtimoiy omillarga, aholi tomonidan shaxsiy gigiyena me‘yorlariga, sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga rioya etilmasligiga bog‘liq.

Bu hol mazkur muammoni kasallikning zamonaviy epidemiologik xususiyatlari, laboratoriya tashxisot usullaridan foydalanib batafsil o‘rganishni, ushbu infeksiya epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi: Sil kasalligining oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyatini o‘rganish.

Tadqiqot materiallari: O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining sil bilan kasallanishi bo‘yicha rasmiy hisobotlari. Sil kasalligi epidemik o‘choqlarini epidemiologik tekshirish xaritalarining tahlili.

Natijalar va munozaralar: Kasallikning oldini olish, unga qarshi kurash chora-tadbirlari. Sil kasalligiga qarshi kurashda sog‘lomlashtirish va sanitariya-gigiyena chora-tadbirlarinnng ahamiyati katta. Kasallikning oldini olish choralaridan biri aholining yashash va turmush sharoitini yashilash, ularni sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan turar joy bilan ta‘minlash, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va boshqa muassasalarda ishlovchilarning ish joylarida gigiyenik sharoitni yaxshilash, shuningdek bolalar va o‘smirlarni jismonan chiniqtirish, doimo badantarbiya va sport bilan shug‘ullantirish, o‘z vaqtida to‘yimli ovqatlanish va shu kabilar kiradi.

Aholi o‘tasida sil bilan og‘rigan bemordarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni davolash, ular ustidan dispanser nazoratini o‘rnatish eng asosiy va samarali choralaridan biridir. Mikobakteriyalarni ajratuvchi (KB) bemorlar kasalxonalarga asosan klinik ko‘rsatmalar asosida yotqiziladi. Epidemik o‘choqda joriy va yakunlovchi dezinfeksiya o‘tkaziladi.

Sil bilan og‘rigan bemorlarni aniqlash, hisobga olish, davolash va dispanser nazorati olib borish sil kasalligiga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega. Silga qarshi kurashda epidemik o‘choqda joriy dezinfeksiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish yaxshi natija beradn. Buning uchun bemorlar o‘zi bilan doimo olib yuradigan tufdonlar bilan ta‘minlanishi kerak, tufdon xloramin yoki xlorli ohakning 3-5% eritmasi, balg‘am esa qaynatish yo‘li bilan dezinfeksiya qilinishi lozim. Bemorlarni idish-tovog‘i, ko‘rpa-yostig‘i, sochig‘i va shu singari buyumlari alohida bo‘lishi kerak. Bemorlarning kiyim kechaklarini yuvishdan oldin qaynatiladi yoki xloraminning 5% eritmasiga 4 soat mobaynida ivitib qo‘yib dezinfeksiya qilinadi. Xonani ho‘l latta bilan artib tozalab tez-tez shamollatib turish lozim. Yakunlovchi dezinfeksiyada xonaning devorlari, mebellar, bemorning ko‘rpa-to‘shagi, kiyim-kechaklar, vannaxona, oshxona, xojatxona va boshqa xonalar dezinfeksiya qilinishi lozim.

Sil kasalligi bilan og‘rigan maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalaridan va maktablardan chetlatiladi, oziq-ovqat korxonalarida ishlovchi xodimlar boshqa korxonalariga ishga o‘tkaziladi. Silning oldini olishda bu kasallikka qarshi kuchsizlantirilgan tirik vaksina (BSJ) bilan emlash samara beradi. Emlash bolalar

tug‘ilgandan keyin 2-5 kunligida tug‘ruqxonalarda davlat tomonidan emlash kalendar rejasiga asosan o‘tkaziladi.

Xulosa: Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki sil kasalligining oldini olishda profilaktik chora-tadbirlar, sanitariya targ‘ibot ishlari, emlash jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etilishi va o‘tkazilishining ahamiyati nihoyatda zarur hisoblanadi.

